

FUTBOL Q'YININING MAKTAB Q'QUVCHILARI

JAMOAVIYLIK VA YETAKCHILIK

KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDAGI

PEDAGOGIK AHAMIYATI

Muratov Muzaffar Shermamatovich,

Samarqand davlat tibbiyot universiteti o'qituvchisi

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ФУТБОЛА В

ФОРМИРОВАНИИ НАВЫКОВ

КОЛЛЕКТИВНОСТИ И ЛИДЕРСТВА У

ШКОЛЬНИКОВ

Муратов Музаффар Шермаматович,

преподаватель Самаркандского государственного

медицинского университета

PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF FOOTBALL

IN THE FORMATION OF TEAM AND


LEADERSHIP SKILLS IN SCHOOLCHILDREN

Muratov Muzaffar Shermamatovich,

Lecturer of Samarkand State Medical University



+99891 523 46 35



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada futbol o'yinining mifik shaxsini ijtimoiy jihatdan shakllantirishdagi roli, xususan jamoaviylik va yetakchilik ko'nikmalarini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Futbol orqali o'quvchilar o'zaro muloqot qilish, mas'uliyat olish, qaror qabul qilish, birgalikda harakat qilish va liderlik qilish kabi ijtimoiy muhim fazilatlarni o'zlashtiradilar. Maqola zamонавиј та'lim konsepsiyalари асосида futbolning tarbiyaviy salohiyatini ochib beradi va uni dars jarayoniga samarali integratsiyalash usullarini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Futbol, jamoaviylik, yetakchilik, ijtimoiy ko'nikmalar, boshlang'ich ta'lim, pedagogik ta'sir, sport tarbiyasi

**Abstract:** This article analyzes the role of football in the social development of schoolchildren, particularly its pedagogical potential in fostering teamwork and leadership skills. Through football, students acquire essential social qualities such as communication, responsibility, decision-making, collaboration, and leadership. The article highlights the educational value of football based on modern teaching concepts and suggests effective ways to integrate it into the school curriculum.

**Keywords:** Football, teamwork, leadership, social skills, primary education, pedagogical impact, sports education.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль футбола в социальном развитии личности школьников, в частности, его педагогические возможности в формировании командного духа и лидерских навыков. Через участие в футбольных играх учащиеся осваивают такие важные социальные качества, как общение, ответственность, принятие решений, совместные действия и лидерство. Статья раскрывает воспитательный потенциал футбола на основе современных образовательных концепций и предлагает эффективные методы интеграции футбольной деятельности в учебный процесс.

**Ключевые слова:** футбол, командный дух, лидерство, социальные навыки, начальное образование, педагогическое воздействие, спортивное воспитание.

**KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)**

Bugungi kunda ta'lif jarayoni nafaqat bilim berishga, balki o'quvchilarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga qaratilgan. Ayniqsa, ijtimoiy kompetensiyalar – ya'ni jamoada ishlash, liderlik qilish, mas'uliyatni his qilish – zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli bo'lishning muhim shartlaridan biri sanaladi. Jismoniy tarbiya darslari va sport o'yinlari, xususan futbol, bu ko'nikmalarni tabiiy va faol tarzda rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi hisoblanadi. Futbol o'yini nafaqat jismoniy rivojlanishga xizmat qiladi, balki o'quvchilarda o'zaro hurmat, hamkorlik,adolat, sabr-toqat kabi tarbiyaviy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Futbol – bu harakatli, dinamik va bir vaqtning o'zida strategik fikrlashni talab qiluvchi jamoaviy sport turi hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun futbolning afzalligi shundaki, bu o'yin ular orasida yuqori qiziqish uyg'otadi, faol ishtirokni rag'batlantiradi va o'rganishni zavqli mashg'ulotga aylantiradi. Ta'lif jarayoniga futbolni kiritish orqali bolalar nafaqat tanaviy faoliyat bilan shug'ullanadi, balki kommunikativ, hissiy va ijtimoiy ko'nikmalarni ham egallaydi.

Futbol jamoada o'ynaladigan o'yin bo'lgani sababli, unda har bir o'yinchilarning umumiy maqsadga xizmat qilishini tushunadi.

## **ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA (ЛІТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS)**

Jamoaviylik ko'nikmasi futbol orqali shakllanadi: har bir o'quvchi to'pni uzatish, hamkorlikda hujum yoki himoya qilish, bir-birini qo'llab-quvvatlash, xatolarni tan olish va bartaraf etish kabi vaziyatlarda jamoaviy harakatga o'rganadi. Bu esa keyinchalik boshqa ijtimoiy faoliyatlarda, jumladan sinfdagi loyihalarda, muhokamalarda, hatto oilaviy yoki jamiyatdagi rollarda ham o'z ifodasini topadi.

Bundan tashqari, futbol o'yinida yetakchilik fazilatlari ham rivojlanadi. O'quvchilar o'yin davomida tashabbus ko'rsatish, jamoani ruhlantirish, o'z fikrini bildirgan holda jamoani yo'naltirish, strategiyani taklif qilish orqali yetakchilikka o'rganadilar. Pedagogik nuqtayi nazardan, bu bolada o'ziga bo'lgan ishonch, mustaqillik, javobgarlikni shakllantiradi. Yetakchilik qobiliyatining rivojlanishi orqali bola muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror

qabul qilishga, bosim ostida o'zini tutishga va boshqa odamlarning fikrini inobatga olishga o'rganadi.

Futbol o'yini orqali jamoaviylik va yetakchilik ko'nikmalarining shakllanishi o'quvchilarning psixologik rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jamoaviy faoliyatda bolalar muayyan vazifalarni bajarish jarayonida o'z histuyg'ularini boshqarish, muomala qilish, boshqa o'yinchilarning kuchli va zaif tomonlarini inobatga olishni o'rganadilar. Bu esa ularning ijtimoiy moslashuvchanlik darajasini oshiradi. Ayniqsa, raqib bilan yuzma-yuz to'qnashuv, o'yin natijasi uchun kurashish va shunday paytda murosaga kelish, qoidaga rioya qilish kabi holatlar orqali bolalarda konfliktga bardosh berish, tanqidiy fikrlash va samimiylilik singari ijtimoiy jihatlar shakllanadi.

## **MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)**

Futbol o'yinining pedagogik jarayondagi yana bir ahamiyatli jihat – o'zini baholash va o'z-o'zini rivojlantirishga intilishdir. O'quvchilar o'yin davomida o'z xatti-harakatlarini tahlil qilish, qaysi harakatlar foydali yoki zararli bo'lganini tushunishga o'rganadilar. Bu esa o'z ustida ishlashni rag'batlantiradi. Ayniqsa, o'yin so'ngida o'qituvchi tomonidan beriladigan tahliliy savollar (masalan: "Jamoamiz nima uchun yutqazdi?", "Sen qanday yordam berding?", "Kelasi safar nimalarga e'tibor beramiz?") orqali o'quvchilar fikrlash, muhokama yuritish va tahlil qilish malakalarini mustahkamlab boradilar.

Bundan tashqari, futbol o'yinida o'quvchilarga beriladigan rol va vazifalar ularning ijtimoiy statusini o'zgartirish imkoniyatini ham yaratadi. Masalan, darsda passiv ishtirok etadigan bola futbol jamoasida to'satdan faol harakat qilishi, boshqalarga yordam berishi orqali ijtimoiy e'tirofga ega bo'lishi mumkin. Bu pedagog uchun muhim signal bo'lib, har bir o'quvchining shaxsiy salohiyatini ochish, unga rag'bat berish va to'g'ri yo'naltirish imkonini beradi.

Futbol o'yinining pedagogik ahamiyati nafaqat o'quvchilarning jismoniy rivojlanishida, balki ularning ijtimoiy va psixologik salohiyatini rivojlantirishda ham sezilarli bo'ladi. Jamoaviy sport turlari, xususan futbol, bolalarni muammolarni birgalikda hal qilishga, qaror qabul qilish jarayonida o'z fikrini bildirishi va boshqa guruhi a'zolarining fikrini tinglashga o'rgatadi. Bu esa ularning ijtimoiy

ongini oshirib, sog‘lom muloqot va hamkorlik muhitini yaratadi.

## NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Futbolda har bir o‘yinchining vazifasi va roli borligi sababli, bolalar o‘z mas’uliyatini tushunishga, o‘z harakatlari uchun javobgarlikni his qilishga o‘rganadilar. Jamoaviy faoliyatda bu mas’uliyat hissi yosh avlodda yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Yetakchilik nafaqat o‘zining boshqalarni boshqarish qobiliyati, balki guruhdagi o‘zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish, motivatsiya berish va guruh ichida adolatni ta’minlashni ham o‘z ichiga oladi.

Futbolning zamonaviy ta’limdagi o‘rni global miqyosda ham tan olingan. Xalqaro sport psixologiyasi taddiqotlariga ko‘ra, jamoaviy sport turlari, ayniqsa futbol, bolalarning ijtimoiy ongini, muloqot etish uslubini va liderlik madaniyatini shakllantirishda eng kuchli omillardan biri hisoblanadi. Shu bois ko‘plab rivojlangan davlatlar ta’lim dasturlariga futbolni nafaqat jismoniy rivojlanish, balki xarakter shakllanishi vositasi sifatida kiritgan.

Pedagogik nuqtayi nazardan, futbol orqali tarbiyaviy ta’sirni maksimal darajada ta’minlash uchun quyidagi omillarga alohida e’tibor berish lozim:

O‘yin davomida har bir o‘quvchiga faol rol berilishi; Harakatlar nafaqat texnik, balki axloqiy jihatdan baholanishi;

O‘yin so‘ngida o‘quvchilarning o‘z fikrlarini aytishi, jarayonni tahlil qilishi uchun muhit yaratilishi; Ijobiy motivatsiya va qo’llab-quvvatlovchi fikrlar orqali o‘ziga ishonchni mustahkamlash.

Zamonaviy pedagogikada o‘yin orqali ta’lim berish (gamifikatsiya) usuli keng tarqalmoqda. Ayniqsa, futbol orqali o‘rganish bolalarning motivatsiyasini oshiradi. O‘quvchilarning faolligi, ishtiropi, muomala madaniyati va o‘zini tutishidagi ijobjiy o‘zgarishlar aynan futbolga asoslangan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida tezroq yuzaga chiqadi. Pedagog uchun bu jarayonni nazorat qilish, har bir bola faol ishtirop etishini ta’minlash, teng imkoniyat yaratish va o‘yin davomida tarbiyaviy vazifalarni ongli tarzda singdirish muhim hisoblanadi.

Futbol darslarini tashkil qilishda quyidagi didaktik yondashuvlar tavsiya etiladi:

✓ Har bir mashg‘ulotda maqsadli tarbiyaviy elementlar (bir-biriga yordam berish, murosaga kelish, o‘zini boshqarish) nazarda tutiladi.

✓ O‘yin vaziyatlaridan pedagogik saboq chiqariladi (masalan, raqibga nisbatan hurmatli munosabat, adolatli baholash).

✓ O‘yin davomida liderlik qobiliyati yuqori bo‘lgan bolalarga rollar topshiriladi va ularni boshqalarga yetakchilik qilishga rag‘batlantiriladi.

## XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Futbol o‘yini o‘quvchilarda jismoniy faollikdan tashqari, jamoadorchilik va yetakchilik kabi hayotiy muhim ko‘nikmalarni shakllantirishda kuchli pedagogik vosita hisoblanadi. Bu o‘yin orqali bolalar o‘zaro hamkorlikda ishslash, do‘stona raqobatga kirishish, boshqalarga qulq solish va o‘z fikrini bildirishga o‘rganadilar. O‘qituvchining to‘g‘ri yondashuvi, o‘yinni tashkil etishdagi metodikasi va tarbiyaviy maqsadlarni ko‘zlab olib borilgan faoliyatlar orqali futbol o‘quvchilarda ijtimoiy, emotsiyonal va liderlik qobiliyatlarini samarali rivojlantiradi. Futbolni dars jarayoniga ongli va tizimli kiritish orqali nafaqat sog‘lom, balki barkamol shaxsni tarbiyalash yo‘lida muhim natijalarga erishish mumkin.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Shermamatovich M. M. & Boltaevich, A. (2022). Interactive Learning Methods In The Process Of Teaching Physical CULTURE. World Bulletin of Management and Law, 7, 99-100.
2. Shermamatovich M. M. Zayniddinovich N. I. Boltaevich A. S. Norqulovich, S. Q., Muzaffarovich S. A. & Abriyevich E. Q. Endurance Formation in General Physical Training Students. International Journal on Integrated Education, 4(3), 356-359.
3. Yalgashevich, X. S. & Shermamatovich, M. M. Enhancing Athletes’ Regained Performance Through Rational Nutrition. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, (1), 1-6.
4. Shermamatovich M. M. & Latif, T. (2023). Development Of Sports In The Republic Of Uzbekistan. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(3), 374-377.
5. Shermamatovich M. M. & Ayxonovich, T. M. (2024). O‘quvchilarning futbol bo‘yicha texnik-taktik harakatlari.